

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
СТОМАТОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

КАФЕДРА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ПЕДАГОГИКИ



*Сборник научных трудов Международной
научно-практической конференции*

**«ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ОБУЧЕНИИ ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В
МЕДИЦИНСКОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ»**

ТГСИ, 5 марта 2022 года

Ташкент - 2022

УДК: 009-37:004-378.14:61

ББК 6/8- 66.4(0)6-94

Ц-75

Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103.

***Цель конференции** – знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных исследованиях, современными цифровыми исследовательскими инструментами в гуманитарных науках.*

Основные направления конференции:

- Современные цифровые методы и технологии обучения гуманитарных дисциплин.
- Современные инструменты работы с цифровыми данными в гуманитарных исследованиях

По результатам работы конференции всем участникам выдан сертификат.

Отобранные материалы опубликованы в виде сборника научных трудов научно- практической конференции «*Цифровизация в обучении гуманитарных дисциплин в медицинском высшем образовании*».

Электронная версия сборника будет размещена на официальном сайте Ташкентского государственного стоматологического института.

Ответственные за выпуск:

Акрамова Лола Юнусовна, завкафедрой Узбекского языка и педагогики ТГСИ, доцент. Телеграмм: 90 - 3579575.

Ниязова Насиба Журабековна, доцент кафедры узбекского языка и педагогики ТГСИ.

Партиева Малика Салохутдиновна. e-mail: malikaparpiyeva71@gmail.com

Авторы статей и тезисов несут ответственность за содержание и грамотность предоставляемых материалов.

| | | |
|-----|---|-----|
| 14. | Ибраева А.С., Унасбаева Г.А., Мезгильбаева З.М. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ В ОНЛАЙН ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ | 77 |
| 15. | Саидахмедов Ж.С., Кадырова З.А. ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕДИЦИНСКОЕ ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ | 81 |
| 16. | Халмуратова М.Т. ЦИФРОВИЗАЦИЯ В МЕДИЦИНСКОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ | 82 |
| 17. | Худоёрова О. К., Кулдашева Г. Давлятовна РАҚАМЛИ СТОМАТОЛОГИЯ ВА ДИАГНОСТИКА ЙЎНАЛИШИДА ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИ | 85 |
| 18. | Исканджанова Ф.К. ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ | 91 |
| 19. | Файзуллаева Н. С. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРИМЕНЕНИЯ СРЕДСТВ ЦИФРОВИЗАЦИИ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ | 95 |
| 20. | Юлдашева Д. Ю. ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ | 100 |
| 21. | Худоёрова О. К., Раупова Ш.А. ТИББИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ИМКОНИАТЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ | 106 |
| 22. | Сиддиқов Н.Н. ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛАШТИРИШ | 110 |
| 23. | Курганова Р.Н. ПРОБЛЕМЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ | 112 |
| 24. | Абдуганиева Ш.Х. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ – ПУТЬ К ОПТИМИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ | 115 |
| 25. | Комилова М.О., Балтабаева Н., ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ | 117 |
| 26. | Эргашева Д.Д. ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕДАГОГА | 122 |
| 27. | Umarova S.R. TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHDA KREATIV KOMPETENSIYALARNIRIVOJLANTIRISH | 126 |
| 28. | Tokhirjonova A. Sh., Komilova M. A. MODERN DIGITAL METHODS AND TECHNOLOGIES FOR TEACHING THE HUMANITIES DISCIPLINES | 130 |

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Umarova Sevara Ravshanjon qizi,
TTA, Pedagogika va psixologiya kafedrası, o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi vaqtda ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan axborotlashtirish va raqamlashtirish jarayonlarining borishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bu jarayonlarni samaradorligini oshirishda ishlatiladigan tushunchalarning ma'nosi, hamda raqamli texnologiyalarning vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, axborotlashtirish, raqamlashtirish, raqamli ta'lim, raqamli signal, raqamli texnologiyalar. innovation, informatization, kompetensiya.

Аннотация: Данная статья посвящена современному развитию системы образования. Ход процессов информатизации и цифровизации. Также значение понятий, используемых для повышения эффективности этих процессов, и информация о функциях цифровых технологий.

Ключевые слова: инновации, информатизация, цифровизация, цифровое образование, цифровой сигнал, цифровые технологии. инновации, информатизация, компетентность.

Annotation: This article focuses on the current development of the education system the progress of informatization and digitization processes. Also, the meaning of the concepts used to increase the efficiency of these processes and information on the functions of digital technologies.

Keywords: innovation, informatization, digitization, digital education, digital signal, digital technology. innovation, informatization, competence.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunga misol sifatida kreativ fikrlaydigan sifatli mutaxassislarni etishtirishda mustaqil ta'limni rivojlantirishga asoslangan ta'limning kredit-modul tizimiga respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarini otayotganligini ko'rsatish mumkin. Hozirgi kunda mamlakatimizning 33 ta oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimiga o'tish bo'yicha ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Barcha kuchlar ushbu tizimni yaratishga safarbar etilmoqda. Bu masalada Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ta'limning kredit-modul tizimiga otishni amalga oshirish bo'yicha amaliy ishlar bajarilmoqda hamda ushbu tizimni

samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni yaratish va qo'llash bo'yicha ijodiy-pedagogik ishlar amalga oshirilmoqda. Universitetda o'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (kompyuterlar, smart-doskalar va boshqa texnik vositalar) tatbiq etibgina qolmay balki dasturiy ta'lim vositalari (Web-portallar, platformalar, mobil ilovalar va hokazo) kabi ilmiy pedagogic ishlanmalar yaratilib, amaliyotga keng tatbiq etib kelinmoqda. Natijada ta'lim tizimida masofaviy o'qitish tajribasi mustahkamlandi va onlayn o'qitish tartibi o'zlashtirildi, ya'ni ta'lim ishtirkchilarida yangicha o'qish ko'nikmalari shakllandi. Masofaviy va onlayn o'qitish tartibini joriy etishda respublikadagi oliy ta'lim muassasalarining erishgan yutuqlari hamda bunday o'qitishni tashkil etishda ta'lim ishtirokchilarida duch kelayotgan muammolar aniq va ravshan ko'rsatib berildi. O'zbekistondagi eng katta sohalardan biri xalq ta'limi tizimi hisoblanadi. O'n mingdan ortiq maktablar, 700 mingdan ziyod ishchi xodimlar xizmat qiladi. Tizimda yillar davomida barcha statistik raqamlar tan olishimiz kerak qog'ozda bo'lgan. Hozirgi kunda xalq tizimini avtomatlashtirish va statistik ma'lumotlarni raqamlashtirish uchun bir nechta tizimlarni ishlab chiqmoqdamiz. Xalq ta'limi tizimini avtomatlashtirish maqsadida IRB tizimini joriy etmoqdamiz. Bunda asosiy maqsad aniq ma'lumotlar bazasini yaratish, ya'ni pastdan turib ma'lumotlar yig'ish va ma'lumotlarni qayta ishlashni osonlashtirishga qaratilgan. Maktab o'quvchisidan to vazirlikkacha bo'lgan bo'g'inlarda bor bo'lgan byurokратиyani, qog'ozbozlikni kamaytirish va ishlarni samarali tashkil qilish. Tizimga maktablar, o'quvchilar va o'qituvchilar soni kiritiladi. Shuningdek, bunda o'quvchi yoki o'qituvchini bitta maktabdan ikkinchi maktabga o'tganligi haqidagi ma'lumotlar va har bitta o'qituvchining shaxsiy kabineti aks etadi. Ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ayniqsa kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimida keng qo'llanilayotganligi ta'lim ishtirokchilarining shaxsiyatiga ham ta'sir qilmoqda. Bugungi kunda shaxsning raqamli iqtisodiyotga mos keladigan eng muhim hususiyati shundaki, u innovatsion ishlar bilan shug'ullanadi, raqamli texnologiyalarga egalik qiladi va ularni kasbiy faoliyatida qo'llaydi. Raqamli muhitga ayniqsa yoshlar tezda moslashib, keyingi rivojlanishi uchun ko'nikma va tajribalarni shakllantiradi. Talabalarda muayyan kompetentliklarni shakllantirish ta'limning turli bosqichlarida sodir bo'ladi, ammo raqamli kompetensiyalar hayot davomida shakllanadi. XXI asrda raqamli texnologiyalar insonlarni har tomondan o'rab oldi. Ulardan inson mehnatini kamaytirish orqali yanada ko'proq natijaga, samaradorlikka erishish maqsadida foydalanilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot — raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisi.

Raqamli iqtisodiyot izchil rivojlanishining birinchi va eng muhim omili — zamonaviy AKT-infratuzilmasini yaratish hisoblanadi. Bu bo'yicha mamlakatimizda bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi.

O'tgan yil boshidan bugungi kungacha respublika bo'yicha internet tarmog'iga keng polosali ulanish portlarining umumiy soni 2,2 mln.ga yetkazildi, 7,8 ming km. optik tolali aloqa liniyalari qurilib, ularning umumiy uzunligi 44,4 ming km.dan oshdi.

Shundan 7,3 km. optik tolali aloqa liniyalari 9410 ta ijtimoiy soha ob'ektlariga tortilishi natijasida 4 786 ta maktab, 2 895 ta maktabgacha ta'lim va 1 729 ta sog'liqni saqlash muassasasini tezkor internetga ulash imkoniyati yaratildi. Bu o'z navbatida yosh avlodning zamonaviy bilim olishi, bemorlarga sifatli va tezkor xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Bu borada investorlar va mahalliy tadbirkorlar ham faol qatnashayotgani e'tiborga molik. Masalan, Jizzax erkin iqtisodiy zonasida Janubiy koreyalik hamkorlar bilan birgalikda loyiha qiymati 11 mln. dollarga teng optik tolali kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish zavodi ishga tushirilib, yiliga 50 ming km. optik tolali kabel tayyorlash quvvati yaratildi.

Bu esa, o'z navbatida, internet tezligining keskin oshishida muhim omilga aylandi. Gap shundaki, "Ookla" kompaniyasining Speedtest.net servisi internet tezligi bo'yicha 2020 yil iyun oyi natijalariga ko'ra yangi ma'lumotlarni e'lon qildi va ushbu Speedtest Global Index reytingida O'zbekiston keskin o'sishni namoyon etdi.

Internet tezligi bo'yicha reytingda O'zbekiston hozirgi kunda 94-pog'onani egallab turibdi, bir yil ichida 36 pog'onaga ko'tarilish kuzatildi. Umuman, oxirgi yil natijalariga ko'ra O'zbekistonda simli internet tezligi 2,5 barobarga o'sdi.

Qolaversa, telekommunikatsiya xizmatlari uchun tarif narxlari arzonlashmoqda. 2019 yil davomida provayder va operatorlar uchun tashqi kanalga ulanish tariflari narxi 1 Mbit/s. 17 foizga arzonlashtirildi. 2020 yilning 1 yanvaridan operator va provayderlarga internet xizmatlari uchun tarif o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 34 foiz arzonlashtirildi. E'tiborli jihati shundaki, bozor iqtisodiyoti talablariga ko'ra, tizimli ravishda internet xizmatlari narxlari kamaytirilib borilmoqda.

Zamonaviy ta'limda ta'lim ishtirokchilarining kreativ kompetentsiyasini shakllantirishning dolzarbligi ta'limni rivojlantirishning mavjud holati bilan belgilanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida yangi pedagogik va raqamli texnologiyalarni, ommaviy kommunikatsiya vositalarini keng joriy etilishi ularni o'quv jarayonini sifatiga, ta'lim beruvchining ilmiy-pedagogik imkoniyatlariga, ta'lim oluvchining bilimlarni o'zlashtirish darajasiga hamda mutaxassislikni egallash sifatiga ta'sir qilmoqda. Jamiyatni raqamlashtirishning umumiy yo'nalishi ta'lim sohasida, shu

jumladan pedagogika fanlari doirasida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ta'limni raqamlashtirish jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy innovatsion texnologiyalar har yili tobora takomillashib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya qilish va rivojlantirishga, shuningdek kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlash sifatini yaxshilashga va ta'limni ilm-fan bilan yaqinlashishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar ta'lim faoliyatiga mavjud bo'lgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni hamda ta'lim ishtirokchilarining kompetensiyalariga ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ta'limni raqamlashtirish va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim oluvchining ijodiy o'zini-o'zi anglashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qodir bo'lgan pedagogning kreativ, kasbiy jihatdan harakatchan bo'lishi davr talablariga bo'lgan javobdir. Bunday pedagoglar ijodiy salohiyatga ega, bilim doirasidan tashqarida fikrlaydigan, o'z predmeti bilan o'ziga jalb eta oladigan, talabaning bilim doirasini kengaytiradigan, pedagogik faoliyatda o'zini-o'zi namoyon qiladigan va ta'lim oluvchining potentsial ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqaradigan kreativ kompetensiyalarga ega pedagoglar bo'lib hisoblanadi.

Raqamli muhit ta'lim beruvchilardan boshqacha munosabatlarga ya'ni dunyoni idrok etishga, ta'lim oluvchilar bilan ishlashning boshqacha yondashuvlariga va shakllariga ega bo'lishni talab qiladi. Ta'lim beruvchi nafaqat ta'lim oluvchilar bilan aloqada bo'ladigan bilimlarning tashuvchisi, balki raqamli dunyoga yo'l boshlovchi bo'lishi ham talab etiladi. U "raqamli savodxonlik"ka ya'ni zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash, jumladan, kompyuter dasturlash ta'minoti, ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta ishlash, aloqa vositalarini yaratish va qo'llash, zamonaviy ta'lim dasturlari va platformalaridan foydalana olish, ta'limiy saytlar va mobil ilovalarni yaratish kabi kompetentliklariga ega bo'lishi kerak. Ta'limning raqamlashuvi bevosita ta'lim beruvchining raqamli texnologiyalarini o'zlashtirish darajasiga bog'liq bo'lib, ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash maqsadida amalga oshiriladi. Ta'lim beruvchilarda raqamli axborot oqimida faoliyat yuritish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish kabi kompetensiyalarini shakllantirish ta'limni raqamlashtirishdagi zarur vazifalardan biridir. Ta'limning raqamlashtirilishi mehnat bozorida, ta'lim standartlarida o'zgarishlarga olib keladi, insonning yangi kompetensiyalarini shakllantirishdagi ehtiyojlarni aniqlaydi va ta'lim beruvchining rolini qayta ko'rib chiqishga va ta'lim jarayonini qayta tashkil etishga yordam beradi, hamda ta'lim tizimini tubdan, sifatli qayta qurilishiga olib keladi.

Shunday qilib, ta'limni raqamlashtirish ta'limning kredit-modul tizimida keng o'rin olgan mustaqil ishlarni bajarishda ta'lim oluvchilar tomonidan mobil va Internet

texnologiyalaridan foydalanishni, ularning bilim doirasini kengaytirishni o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish, ta'lim oluvchilarni mustaqil ishlash jarayonida nihoyatda zarur bo'lgan zamonaviy kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimova M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va samaradorligini oshirish–davr talabi //Архив научных исследований. – 2020. – №. 32.
2. Omonov Q. Raqamli ta'lim: u nima va bizga nima beradi?// <http://uza.uz/posts/2068>
3. Madinabonu, A., & Nasiba, N. (2020). The Role of Literary Texts in Teaching (On the Example of Modern Literature–Z. Prilepin). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05). <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>
4. Никулина Т. В., Стариченко Е. Б. Информатизация и цифровизация образования: понятия, технологии, управление // Педагогическое образование в России. – 2018. – №. 8.
5. Брякова И. Е. Креативная компетентность педагога–новый вектор развития образования //Педагогический имидж. – 2019. – №. 3 (44)
6. Бекимбетова Г.М., & Шатураев Ж.Н. (2021). ОСНОВНОЙ ПОКАЗАТЕЛЬ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ РАСЧЕТ ЧИСТОЙ ТЕКУЩЕЙ СТОИМОСТИ. The Scientific Heritage, (77-3), 14-21. doi: 10.24412/9215-0365-2021-77-3-14-21
7. Shaturayev, J. N., & Jumayev, H. S. (2019). Small Business, Innovation and Entrepreneurship. International Journal of Advanced Research, 7(11), 303-307.

MODERN DIGITAL METHODS AND TECHNOLOGIES FOR TEACHING THE HUMANITIES DISCIPLINES

Tokhirjonova A. Sh.,

Tashkent city, Tashkent Medical Academy, m.jonny353@gmail.com

Komilova M. A.,

Tashkent city, Tashkent Medical Academy

Annotation: At present, the introduction of digital technologies in the educational process is a relevant direction in the professional training of specialists in the system of higher professional education and can improve the quality of education, significantly increase the level of competitiveness of future specialists in the labor